

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash

2024- yil yakuni bo'yicha.


- I. O'zbekiston Respublikasidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari
- II. O'zbekiston Respublikasidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari
- III. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari
- IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar
- V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. O'zbekiston Respublikasidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari

Shifoxona muassasasi — kechayu-kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni tashxis qo'yish, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan kadrlarga ega va kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

O'zbekiston Respublikasidagi shifoxona muassasalari soni


(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



2024- yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining umumiy soni **1 972 taga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **540 taga** ko'payib, **37,7 % ga** o'sishni tashkil etdi. Umumiy shifoxona muassasalari sonidan kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni **1 301 tani** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **577 taga**, ya'niy **79,7 % ga** oshdi.

Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming birlik)



2024- yil yakunida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni **179,9 mingtaga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **5,4 mingtaga** ko'payib, **3,1 % ga** o'sishni tashkil etdi.

Shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Shifoxona muassasalari soni		shundan, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni		Bemor o'rinlari soni (ming birlik)	
	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi
O'zbekiston Resp.	1 972	100	1 301	100	179,9	100
Qoraqalpog'iston Resp.	62	3,1	21	1,6	8,3	4,6
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	265	13,4	225	17,3	16,9	9,4
Buxoro	134	6,8	98	7,5	9,8	5,4
Jizzax	71	3,6	35	2,7	6,8	3,8
Qashqadaryo	136	6,9	75	5,8	14,0	7,8
Navoiy	44	2,2	15	1,2	4,6	2,6
Namangan	200	10,1	160	12,3	16,5	9,2
Samarqand	193	9,8	145	11,1	16,3	9,1
Surxondaryo	96	4,9	59	4,5	10,0	5,6
Sirdaryo	48	2,4	23	1,8	4,6	2,6
Toshkent	145	7,4	76	5,8	17,3	9,6
Farg'ona	245	12,4	179	13,8	18,7	10,4
Xorazm	83	4,2	52	4,0	8,6	4,8
Toshkent sh.	239	12,1	138	10,6	26,4	14,7

2024- yil yakuni bo'yicha eng ko'p shifoxona muassasalari Andijon (**265 ta**), Farg'ona (**245 ta**) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (**239 ta**) joylashgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Navoiy (**44 ta**), Sirdaryo (**48 ta**) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**62 ta**) qayd etilgan. Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining eng ko'pi Andijon (**225 ta**), Farg'ona (**179 ta**) va Namangan (**160 ta**) viloyatlariga to'g'ri kelgan, eng kami esa Navoiy viloyati (**15 ta**) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**21 ta**) qayd etilgan.

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

Shifoxona muassasalaridagi eng ko'p bemor o'rinlari Toshkent shahri (**26,4 mingta**), Farg'ona viloyati (**18,7 mingta**) va Toshkent viloyatida (**17,3 mingta**) qayd etilgan bo'lib, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Navoiy (**4,6 mingta**), Sirdaryo (**4,6 mingta**) va Jizzax (**6,8 mingta**) viloyatlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Shifoxona muassasalari soni](#)

[Shifoxona muassasalari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi](#)

[Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni](#)

[10 000 aholiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari soni](#)

II. O'zbekiston Respublikasidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari – aholining ushbu muassasalarga qatnashi yoki shifokorlar tomonidan uylarga tashrif buyurishi orqali aholiga davolash-profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalardir (poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy-sanitariya qismlari, ambulatoriyalar, qishloq (shahar) shifokorlik punktlari, mustaqil shifokorlik punktlari, ayollar maslahatxonalari va boshqalar).

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



2024- yil yakunida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni **8 107 taga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **96 taga** ko'payib, **1,2 % ga** o'sishni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni **5 090 tani** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **82 taga**, ya'ni **1,6 % ga** kamaydi.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni		shundan, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni	
	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi
O'zbekiston Resp.	8 107	100	5 090	100
Qoraqalpog'iston Resp.	414	5,1	217	4,3
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	624	7,7	389	7,6
Buxoro	593	7,3	379	7,4
Jizzax	269	3,3	126	2,5
Qashqadaryo	692	8,5	427	8,4
Navoiy	353	4,4	168	3,3
Namangan	542	6,7	328	6,4
Samarqand	724	8,9	448	8,8
Surxondaryo	443	5,5	237	4,7
Sirdaryo	215	2,7	80	1,6
Toshkent	639	7,9	406	8,0
Farg'ona	883	10,9	535	10,5
Xorazm	502	6,2	360	7,1
Toshkent sh.	1 198	14,8	990	19,4

2024- yil yakuni bo'yicha hududlar kesimida eng ko'p ambulatoriya-poliklinika muassasalari Toshkent shahrida (**1 198 ta**), Farg'ona (**883 ta**) va Samarqand (**724 ta**) viloyatlarida qayd etilgan bo'lib, eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**215 ta**), Jizzax (**269 ta**) va Navoiy (**353 ta**) viloyatlarida kuzatilgan. Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalarining eng katta qismi ham Toshkent shahrida (**990 ta**), Farg'ona (**535 ta**) va Samarqand (**448 ta**) viloyatlarida joylashgan bo'lib, boshqa hududlarga nisbatan eng kam qismi Sirdaryo (**80 ta**), Jizzax (**126 ta**) va Navoiy (**168 ta**) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni](#)

[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi](#)


¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

III. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari

Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash muassasalarida va boshqalarda ishlaydigan oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shifokorlar kiradi.


O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiyot va sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, bolalar uylari va boshqalarda ishlaydigan o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan
barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni **107,5 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **1,8 ming kishiga**, ya'ni **1,7 % ga** ko'paydi. 2024- yil yakuniga qadar O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan shifokorlar umumiy sonidan ayollarning ulushi **46,6 % ni**, erkaklarning ulushi esa **53,4 % ni** tashkil etdi. 2023- yil ma'lumotlariga nisbatan ayol-shifokorlar soni **1,0 % ga**, erkak-shifokorlar soni esa **2,3 % ga** oshdi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlari soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakunida O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlari soni **353,8 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **33,8 ming kishiga**, ya'ni **8,7 % ga** kamaydi.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot
xodimlari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi ¹⁾
(2024- yil yakuni bo'yicha, ming kishi)

	Shifokorlar soni, jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	ulardan:		O'rta tibbiyot xodimlari soni	jamiga nisbatan % dagi ulushi
			erkaklar	ayollar		
O'zbekiston Resp.	107,5	100	57,4	50,1	353,8	100
Qoraqalpog'iston Resp.	5,5	5,1	1,9	3,6	19,1	5,4
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	8,1	7,5	4,8	3,3	27,9	7,9
Buxoro	6,7	6,2	3,7	3,0	22,6	6,4
Jizzax	2,8	2,6	1,8	1,0	14,8	4,2
Qashqadaryo	6,7	6,2	4,4	2,3	36,9	10,4
Navoiy	3,3	3,1	2,0	1,3	15,0	4,2
Namangan	6,2	5,8	3,7	2,5	27,7	7,8
Samarqand	11,5	10,7	6,9	4,6	32,9	9,3
Surxondaryo	4,8	4,5	3,2	1,6	21,4	6,0
Sirdaryo	2,0	1,9	1,2	0,8	12,7	3,6
Toshkent	7,4	6,9	3,9	3,5	29,4	8,3
Farg'ona	9,9	9,2	6,1	3,8	40,0	11,3
Xorazm	6,2	5,8	3,3	2,9	16,6	4,7
Toshkent sh.	23,9	22,2	9,9	14,0	35,8	10,1

2024- yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning eng ko'p soni Toshkent shahri (**23,9 ming kishi**), Samarqand (**11,5 ming kishi**) va Farg'ona (**9,9 ming kishi**) viloyatlariga to'g'ri kelgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**2,0 ming kishi**), Jizzax (**2,8 ming kishi**) hamda Navoiy (**3,3 ming kishi**) viloyatlarida kuzatilgan.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi (**65,5 %**) va Toshkent shahrida (**58,6 %**) shifokorlarning umumiy sonidan ayollar ulushi erkaklar ulushidan yuqori bo'lgan. Boshqa hududlarda esa erkak-shifokorlarning ulushi ko'proq bo'lgan. Ularning eng ko'p qismi Surxondaryo (**66,7 %**), Qashqadaryo (**65,7 %**) va Jizzax (**64,3 %**) viloyatida qayd etilgan.

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

2024-yil yakuniga ko'ra, eng ko'p o'rta tibbiyot xodimlari Farg'ona (**40,0 ming kishi**), Qashqadaryo (**36,9 ming kishi**) viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (**35,8 ming kishi**) qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**12,7 ming kishi**), Jizzax (**14,8 ming kishi**) va Navoiy (**15,0 ming kishi**) viloyatlarida kuzatilgan.

Ixtisosliklar va ayrim mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar bilan ta'minlanganlik
(tegishli yil yakuni bo'yicha, 10 000 aholiga nisbatan shifokorlar soni)

	2020	2021	2022	2023	2024
Jami shifokorlar,	27,0	27,1	27,9	28,7	28,6
<i>ulardan:</i>					
terapevtik ixtisosligi bo'yicha	6,0	6,5	9,3	9,5	10,8
jarrohlik ixtisosligi bo'yicha	3,3	3,3	3,2	3,3	3,3
akusher-ginekologlar (10 000 ayolga nisbatan)	3,1	2,9	3,0	3,0	3,2
pediatrlar (0-14 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)	5,2	4,8	5,5	4,1	8,3
pediatrlar (0-17 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)	4,5	4,1	4,8	3,6	7,1
oftalmologlar	0,5	0,4	0,5	0,5	0,5
otolaringologlar	0,5	0,5	0,5	0,6	0,6
ftiziatrlar	0,3	0,4	0,3	0,3	0,2
nevropatologlar	0,8	0,8	0,9	0,9	0,9
psixiatrlar	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3
narkologlar	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
dermato-venerologlar	0,4	0,4	0,4	0,4	0,3
stomatologlar	1,6	1,8	2,2	2,1	3,3
sanitariya-epidemiologiya guruhi shifokorlari	1,4	1,1	1,2	1,1	1,4
rentgenologlar va radiologlar	0,4	0,4	0,4	0,5	0,4
onkologlar	0,1	0,1	0,2	0,3	0,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni](#)

[Shifokorlar bilan ta'minlanganlik \(10 000 aholiga nisbatan shifokorlar soni\)](#)

[Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni](#)

[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha ayol-shifokorlar soni](#)

[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar sonidan ayollar ulushi](#)


[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar sonidan erkaklar ulushi](#)

IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

Kasallanish darajasi – bu ko'rsatkich ma'lum bir davr mobaynida har 100 000 aholiga to'g'ri keladigan birinchi marotaba ro'yxatga olingan kasallik holatlari sonini aks ettiradi. U yangi kasalliklarni paydo bo'lishi dinamikasini tahlil qilish, profilaktika choralari samaradorligini baholash va tibbiy resurslarni rejalashtirish uchun ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasida aholining kasallanish darajasi


(tegishli yil yakuni bo'yicha, 100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)



2024- yil yakunida O'zbekiston Respublikasida aholining kasallanish darajasi har 100 000 aholiga nisbatan **57 087,6 ta** birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlarni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **5,3 % ga** kamaydi.


Kasalliklarning asosiy guruhlari bo'yicha aholining kasallanish darajasi

(2024- yil yakuni bo'yicha, 100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)



O'zbekiston Respublikasidagi shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni **7 799,6 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **881,3 ming kishiga**, ya'ni **12,7 % ga** ko'paydi.

¹⁾ 15-49 yoshdagi ayollarga nisbatan.

²⁾ Perinatal yoshdagi bolalarga nisbatan.

Hududlarda aholining kasallanish darajasi hamda davolangan bemorlar soni
(2024- yil yakuni bo'yicha)

	Aholining kasallanish darajasi ¹⁾ (100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)	Davolangan bemorlar soni	
		jami ²⁾ (ming kishi)	jamiga nisbatan % dagi ulushi
O'zbekiston Resp.	57 087,6	7 799,6	100
Qoraqalpog'iston Resp.	40 642,2	329,2	4,2
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	61 104,2	776,3	10,0
Buxoro	54 237,0	454,3	5,8
Jizzax	35 441,6	300,7	3,9
Qashqadaryo	41 934,0	635,3	8,1
Navoiy	46 169,3	239,9	3,1
Namangan	40 055,9	707,5	9,1
Samarqand	43 961,1	792,5	10,2
Surxondaryo	38 430,9	471,6	6,0
Sirdaryo	52 240,0	219,0	2,8
Toshkent	60 274,1	678,7	8,7
Farg'ona	58 365,8	918,1	11,8
Xorazm	62 230,0	383,9	4,9
Toshkent sh.	142 803,9	846,4	10,9

2024- yil yakuniga ko'ra, aholining kasallanish darajasining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri (har 100 ming aholiga nisbatan **142 803,9 ta** birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holat), Xorazm (**62 230,0 ta holat**) va Andijon (**61 104,2 ta holat**) viloyatlarida qayd etilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Jizzax (**35 441,6 ta holat**), Surxondaryo (**38 430,9 ta holat**) va Namangan (**40 055,9 ta holat**) viloyatlarida kuzatilgan.

Farg'ona viloyati (**918,1 ming kishi**), Toshkent shahri (**846,4 ming kishi**) va Samarqand viloyatida (**792,5 ming kishi**) davolangan bemorlarning eng ko'p qismi qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**219,0 ming kishi**), Navoiy (**239,9 ming kishi**) va Jizzax (**300,7 ming kishi**) viloyatlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni \(jami\)](#)

¹⁾ Toshkent shahrida joylashgan markaziy tibbiyot muassasalarining hamda respublikaning barcha hududlaridan poytaxtga davolanish uchun kelayotgan bemorlarning ko'pligi sababli Toshkent shahrida aholining kasallanish darajasi 100 000 kishidan ortgan.

²⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sog'liqni saqlash statistikasi – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'i, ularning holati va ta'minlanganligi, tibbiy xodimlar), aholining umumiy salomatlik holati va uning alohida kontingentlari miqdoriy xususiyatlari, tarkibi, kasallanish chastotasi va tarqalishini o'rganuvchi statistika tarmog'i hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash statistikasining asosiy vazifasi foydalanuvchilarga sog'liqni saqlashning holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli rasmiy statistika ma'lumotlarini o'z vaqtida taqdim etishdan iborat.

Sog'liqni saqlash statistikasi sog'liqni saqlash tarmoqlari, sog'liqni saqlash tashkilotlari xodimlari, bemorlarning kasalxonaga yotqizilishi, tibbiy yordam ko'rsatilishi, sog'liqni saqlash resurslari, aholining kasallanish, nogironligini qamrab oladi, hamda o'zaro bog'liq bo'lgan statistika kuzatuvlari va idoraviy ma'lumotlar tizimi bilan ifodalanadi, ularning har biri o'ziga xos mavzuga va statistika kuzatuv birliklarini shakllantirish xususiyatlariga ega.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash bo'yicha statistik ma'lumotlar har yili shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etilib, hisobot yili yakuni bo'yicha keltiriladi.

Jamlangan ma'lumotlardan sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Sog'liqni saqlash statistikasi bo'yicha uslubiy nizom](#)
[Xalqaro kasalliklar tasnifining 10-tahriri \(XKT-10\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: 71-202-80-00 (1300, 1305)

